



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 352 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<i>Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi.....	290
<i>Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</i>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri	296
<i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<i>Aygul Aralbayevna Urazimbetova</i>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<i>Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar	307
<i>Idiyeva Gulchehra Izomovna</i>	



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv	319
Laylo Baxtiyor qizi Axmedova	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari	323
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi	328
Samadov Sardor Sodiqovich	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni	340
Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili	344
Xiloldinova Zulayho	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li	



**Abrorxo'ja Muminxo'jayev
Muksumxodjayevich**
IIV ixtisoslashtirilgan maktab-
internati, ingliz tili fani
o'qituvchisi, PhD

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING GAPIRISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI – “INSTRUKSIONAL TEKNOLOGIYA” VA SUN'IY INTELLEKTGA TAYANIB O'QITISH METODOLOGIYASI

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-6624-9369>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining ingliz tilida gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy instruksional texnologiyalar hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish metodologiyasi yoritilgan. Tadqiqotda an'anaviy o'qitish modeli bosqichlari – motivatsiya, tushuntirish, mashq, nazorat va refleksiya – sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiyalash tajribasi asosida tahlil qilingan. Natijalar o'quv jarayonining individuallashtirilishi, adaptiv baholash va real vaqtli fikr-mulohaza imkoniyatlari orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: instruksional texnologiya, sun'iy intellekt, ingliz tili, gapirish ko'nikmalari, yozish ko'nikmalari, ixtisoslashtirilgan maktab.

Abstract: This article presents a methodology for utilizing modern instructional technologies and artificial intelligence tools to enhance the speaking and writing skills in English of specialized school students. The study analyzes the stages of the traditional teaching model – motivation, explanation, practice, assessment, and reflection – in the context of their integration with AI tools. The findings indicate that individualization of the learning process, adaptive assessment, and real-time feedback capabilities contribute to improving the effectiveness of education.

Key words: instructional technology, artificial intelligence, English language, speaking skills, writing skills, specialized school.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология использования современных инструкционных технологий и инструментов искусственного интеллекта для развития навыков устной и письменной речи на английском языке у учащихся специализированных школ. В исследовании проанализированы этапы традиционной модели обучения – мотивация, объяснение, практика, контроль и рефлексия – в контексте их интеграции с инструментами искусственного интеллекта. Полученные результаты демонстрируют, что индивидуализация учебного процесса, адаптивное оценивание и предоставление обратной связи в реальном времени способствуют повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: инструкционная технология, искусственный интеллект, английский язык, навыки говорения, навыки письма, специализированная школа.

KIRISH

Hozirgi global tillar ta'limi muhitida ingliz tilini o'rgatish metodologiyasi tubdan yangilanish bosqichiga kirgan bo'lib, XX asr davomida hukmronlik qilgan “grammatika-tarjima” yondashuvi o'z o'rnini interaktiv, kommunikativ va o'quvchi markazli modellarga bo'shatmoqda. An'anaviy modelning asosiy tamoyillari - grammatik qoidalarni izohlash, matnlar tarjimasi, quruq sintaktik mashqlar bajarish - hozirgi zamon til o'rgatuvchi amaliyotida yetarli darajada natija bermayotgani kuzatilmoqda. Ushbu paradigma siljishi global kommunikativ ehtiyojlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ta'lim oluvchining faolligiga asoslangan kognitiv modellarning ta'sirida yuzaga keldi.

XXI asr boshidan boshlab het tillarini o'rgatishda instruksional pedagogik model konsepsiyasi keng joriy etildi. Bu modelda ta'lim jarayoni bosqichma-bosqich rejalashtirilgan, ya'ni u motivatsion kirish, kontseptual



tushuntirish, amaliy mashqlar, diagnostik tekshiruv va reflektiv tahlil bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ana shu konsepsiyaga tayangan holda, bizning tadqiqotimiz doirasida ingliz tilini o'qitishga moslashtirilgan zamonaviy instruktiv texnologiya ishlab chiqildi. Ushbu texnologiya nafaqat an'anaviy modelning bosqichlarini qamrab oladi, balki o'quvchilarning psixolingvistik ehtiyojlarini hisobga olgan holda sun'iy intellekt vositalari, interaktiv muhit va shaxsiylashtirilgan topshiriqlar orqali uzluksiz o'zlashtirishni ta'minlaydi. Instruktiv texnologiya mohiyat e'tibori bilan o'qitish jarayonini tizimli ravishda boshqarishga xizmat qiladigan, diagnostik-analitik asoslangan va adaptiv komponentlar bilan boyitilgan o'quv tizimidir. Unda har bir bosqichda o'quvchining kognitiv faolligi, metakognitiv nazorati, teskari aloqasi va lingvistik o'sishi real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Ayniqsa, grammatika va yozuv bo'yicha Grammarly, talaffuz va og'zaki nutq bo'yicha ELSA Speak, matnli yozuvni takomillashtirish bo'yicha Write&Improve, umumiy mashg'ulotlar uchun esa ChatGPT, ClassDojo kabi vositalar integratsiya qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya sharoitida o'quvchilarning til o'zlashtirish ehtiyojlari ham o'zgarib bormoqda: ular tezkor teskari aloqa, individuallashtirilgan topshiriqlar, real vaqtli monitoring, hamda interaktiv vizualizatsiyalar asosidagi bilim olishga intilmoqda. Sun'iy intellekt vositalari - xususan, Grammarly, Duolingo, ChatGPT, ELSA, Write & Improve, Edmodo, ClassDojo, va boshqa SI-yordamli ta'lim platformalari - bu ehtiyojlarga yuqori ustalik bilan javob bermoqda. Shu sababli, bugungi pedagogik nazariya oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - bu instruksional texnologiya bilan SI vositalarining samarali uyg'unlashtirilgan, pedagogik-texnologik integratsiyalangan formatini yaratishdan iborat. Ilmiy tadqiqot ishmizning bu qismi Burkhanov va Xamidova, Zokirjonova, Han va boshqalar, Jiang kabi yetakchi tadqiqotchilarning yondashuvlarini chuqur tahlil qilgan holda, ushbu ikki asosiy paradigmani - an'anaviy instruksional texnologiya va SI asosidagi adaptiv o'rgatish yondashuvi - qanday metodologik asosda uyg'unlashtirish mumkinligini ilmiy asoslab berishni o'z ichiga oladi. Mazkur metodologik konsepsiyada Gagnening ta'limiy hodisalar modeli, Reigeluthning kontekstual adaptivlik tamoyillari, hamda Merrillning asosiy o'qitish prinsiplari nazariy zamin sifatida qo'llaniladi. SI vositalari esa instruksional bosqichlar (motivatsiya, tushuntirish, mashq, tekshiruv, refleksiya) bilan moslashtirilgan holda tanlanadi va ularning roli har bir bosqichda qanday amalga oshirilishi nazariy va amaliy jihatdan aniqlab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishlari, nazariy umumlashtirish va instruksional texnologiyani sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiya qilish yondashuvlari qo'llanildi. Metodologik asos sifatida Gagné, Reigeluth va Merrill nazariyalari hamda CLIL tamoyillari olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Instruktiv texnologiyada o'qitish strategiyasi - bilimni bosqichma-bosqich, tushunarli, qat'iy tartib asosida yetkazish jarayoni bo'lib, asosiy rolni o'qituvchi-instruktor bajaradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt vositalari - ayniqsa GPT va Grammarly - bu jarayonga yordamchi vosita sifatida qo'shiladi ^[1]. Ingliz tilini o'qitish jarayonida instruksional texnologiya sun'iy intellekt asosida yanada samarali, shaxsga yo'naltirilgan va natijador tizimga aylanadi ^[2]. Quyida bayon etilgan strategiyalar SI vositalari asosida til ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning har biri alohida metodik ahamiyatga ega.

Modeling (namuna ko'rsatish)

Bu yondashuvda o'qituvchi model sifatida har bir topshiriqni avval o'zi bajarib ko'rsatadi ^[5]. Bu "e'tiborni jalb qilish" va "yangi bilimni namoyish etish" bosqichlariga to'g'ri keladi ^[6]. Masalan, insho yozish uchun o'qituvchi kirish, asosiy qism, xulosa strukturasi bo'yicha o'z nusxasini ishlab chiqadi. Keyin o'quvchilar ChatGPT'dan foydalanib, o'zlariga mos namunaviy matnlarni yaratishadi ^[3]. Bunda GPT yordamida stilistik, grammatik, mantiqiy strukturaviy tahlillar beriladi. Bu metod konstruktivistik yondashuvda "model orqali o'rganish" tamoyiliga asoslanadi.

Guided practice (yo'naltirilgan mashq)

Bu strategiya o'qituvchining mentor rolini aks ettiradi. O'quvchilar yozma yoki og'zaki mashqlarni Grammarly yoki ChatGPT'ning tavsiyalari asosida bajaradilar. O'qituvchi esa jarayonni bevosita boshqarmay, kerakli bosqichlarda intervensiya orqali yordam beradi ^[6]. Yo'naltirilgan mashq SI'ning kuzatuvchi-hamkor rolini kuchaytiradi va o'quvchilarning reflektiv o'rganishini bosqichma-bosqich mustahkamlaydi.



Differensial yondashuv

SI vositalari, ayniqsa GPT, o'quvchining dastlabki darajasi, leksik ko'lami, grammatik savodxonligi va matn mazmunini avtomatik aniqlab, individual mashqlar taklif qiladi. Bu differensial yondashuv shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning asosiy elementidir [2]. Sun'iy intellekt yordamida "one-size-fits-all" modeldan voz kechilib, har bir o'quvchiga kontekstual moslashtirilgan ta'lim taqdim etiladi.

Reflektiv o'rganish

Refleksiya - o'quvchining fikrlashini, xatosini va mahoratining o'sib borishini anglashidir [9]. Grammarly yoki ChatGPT yordamida yozilgan har bir matndan so'ng o'quvchi xatoliklar ro'yxati, stilistik tahlil, va tahrir variantlarini oladi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchiga ko'maklashuvchi mulohazalarni beradi. Natijada, reflektiv o'rganish metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Real-Time Feedback (tezkor fikr-mulohaza)

SI asosidagi yozma tahlil tizimlari o'quvchining xatolarini real vaqt rejimida aniqlaydi [10]. Bu tizim CEFR'dagi "Can Do" tamoyiliga mos ravishda o'quvchiga maqbul alternativ javob va yaxshilash taklifini beradi. O'qituvchi esa bu fikr-mulohazalarni izohlaydi, kengaytiradi yoki muqobil variantlar beradi. Bu yondashuv, ayniqsa yozma nutqni tahliliy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Gamifikatsiyalashgan amaliyot

SI bilan gamifikatsiya - ya'ni o'yin elementlarini darsga joriy qilish - o'quvchini darsga jalb etish va nutqiy faollikni oshirishda samarali usul hisoblanadi. "Travel agent – client" kabi rollar GPT yordamida o'ynaladi. Bot bir rolni ijro etadi, o'quvchi unga mos ravishda javob beradi. Bu esa og'zaki nutqni ijtimoiy vaziyatda mashq qilish imkonini beradi. Shuningdek, gamifikatsiya orqali stress kamayadi, erkin ifoda qilish kuchayadi va o'ziga ishonch ortadi [6]. Ushbu yondashuv PBL va TBL yondashuvlariga ham yaqin.

Ushbu strategik komponentlar SI yordamida instruksional yondashuvni transformatsiya qiladi, uni interaktiv, personalizatsiyalashgan va samarali kompetensiyaviy modelga aylantiradi. O'qituvchi har bir bosqichda kurator, tahlilchi va yo'naltiruvchi rolini bajaradi, sun'iy intellekt esa tahlilchi, model va mentor sifatida dars jarayoniga integratsiyalashadi. Natijada, o'quvchilar erkin fikrli, reflektiv va yuqori kommunikativ kompetensiyaga ega til egalari aylanishadi. Ishlab chiqilgan yangi texnologiyaning asosiy g'oyasini quyidagicha tarflash mumkin: "O'qituvchi - bilim beruvchi emas, balki faol jarayonni rejalashtiruvchi, tashkillashtiruvchi va boshqaruvchi; SI esa - tahlilchi va yordamchi vosita".

Ilmiy ishning subyekti yuzasidan tahlillarimizga ko'ra, ingliz tilini o'qitishda eng muhim jihatlardan biri - bu individuallashtirilgan, tezkor va faol o'qitish strategiyasini shakllantirishdir. O'qituvchi darsni faqat o'tkazuvchi emas, balki murabbiy va boshqaruvchi bo'lishi kerak. Biz ishlab chiqqan texnologiyada SI vositalarini shunchaki texnik yordamchi emas, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, tuzatishga, tahlil qilishga o'rgatuvchi vosita sifatida etirof etamiz. Yangi instruktiv texnologiyada resurslar - bu faqat darsliklar emas. Ular o'qituvchining ishonchlilik va aniqlik filtrlaridan o'tgan, o'quvchi bilimini mustahkamlovchi, individual fikrlashni rag'batlantiruvchi, SI bilan o'zaro aloqani quvvatlovchi har qanday vositalar majmuasidir.

Resurslar ikki asosiy turga bo'linadi [5]:

1. An'anaviy resurslar (moddiy): Darsliklar, mashq daftarlari, lug'atlar va boshqalar.
2. Raqamli
 - a) ChatGPT - o'quvchilarga savollarga javob berish, yozma ishlarni yozishda yordam berish, matnni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish, gapirish ko'ni masini rivojlantirishda imtihon oluvchi yoki dialogik sherik vazifasini bajaradi.
 - b) Grammarly - imlo, grammatika, punktuatsiya, uslubiy xatolarni aniqlaydi. "Explanation view" funksiyasi bilan har bir xatoni sabab bilan izohlaydi.
 - c) Text-to-speech / Speech-to-text vositalar (Google, MacWhisper) - o'quvchilarning og'zaki nutqini matnga aylantirish va aksincha, talaffuz va intonatsiyani avtomatik baholash imkoniyatini beradi.
 - d) Padlet, Quizizz, Wordwall, Edpuzzle - qayta aloqa olish, interaktiv testlar o'tkazish, videodarslarni baholash, guruh ishlari tashkil etish uchun ishlatiladi.

Yangi instruktiv texnologiyada baholash jarayoni ikki yo'nalishda olib boriladi:

- o'qituvchi tomonidan an'anaviy baholash;
- sun'iy intellekt orqali avtomatik, real vaqtda baholash va tahlil.



Bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi va birgalikda ko'p qirrali, dinamik baholash muhitini yaratadi ^[4].

A. An'anaviy baholash (o'qituvchi orqali):

- Yozma topshiriqlar (insho, xat, tavsif): CEFR mezonlari (coherence, lexical resource, accuracy) asosida baholanadi.
- Og'zaki chiqishlar: Speaking bandlariga ko'ra - fluency, interaction, vocabulary, pronunciation ^[11].

B. Sun'iy intellekt asosida baholash:

- ChatGPT - yozma ishlar strukturasi (kirish, asosiy qism, xulosa), fikrlar izchilligi, transition words ishlatilishi, ohang, ijtimoiy kontekstga moslikni tahlil qiladi. U "Prompt" asosida ishlaydi ^[3].
- Grammarly - imlo, grammatika, punktuatsiya, clarity, engagement, delivery mezonlari asosida yozuvlarni baholaydi, har bir xatoni izohlab beradi ^[4].
- Speech-to-text vositalar (Whisper, Google STT) - o'quvchining og'zaki nutqini matnga aylantiradi, hosil bo'lgan matnni Grammarly orqali tahlil qilish imkonini beradi ^[8].
- Alohida feedback algoritmlari (Socratic method style) - GPT savollar orqali o'quvchini o'z xatolari ustida fikr yuritishga undaydi ^[10].
- Self-assessment: O'quvchi o'zi yozgan matnni yoki og'zaki javobni GPT tavsiyalari bilan taqqoslaydi va o'z-o'zini tekshiradi ^[3].
- O'qituvchidan differensial feedback: O'quvchilarning ko'p takrorlanadigan yoki hammadada uchrashi mumkin bo'lgan xatolari umumiy sinf muhokamasiga sabab bo'ladi, lekin shaxsiy fikr-mulohaza alohida beriladi ^[6].

Baholashning bu shakli "formativ baholash", "assessment for learning" (AfL) va konstruktivist ta'lim nazariyalariga asoslanadi ^[9]. Ayniqsa, sun'iy intellekt vositalaridan olingan tezkor, shaxsiylashtirilgan va tizimli feedback o'quvchining reflektiv fikrlashini rivojlantiradi.

Har qanday baho - bu faqat raqam emas, balki o'quvchi uchun o'zini anglash imkoniyati, yo'l xaritasi, o'z ustida ishlash uchun bosqichdir. Shu sababli biz o'z instruktiv texnologiyamizda baholashni statik emas, balki dinamik, ko'p qatlamli jarayon sifatida belgilab olishni taklif etamiz.

ChatGPT, Grammarly va boshqa vositalar orqali olingan feedback - bu o'qituvchining og'zaki fikr-mulohazasini ko'paytiruvchi kuchdir ^[3]. Ayniqsa, avtomatik real-time feedback o'quvchi ongida "meni kimdir darhol eshitmoqda, menga e'tibor beryapti" degan fikrni uyg'otadi. Bunday tajriba o'quvchini yozishda va gapirishda o'z ustida ko'proq ishlashga undaydi ^[7]. Shuning uchun ham, instruksional texnologiyada baholash - bu nazorat emas, balki o'quvchi kompetensiyalarini o'stirish vositasidir.

Zamonaviy chet tili ta'limida dars shakllari nafaqat taqdim etilayotgan mazmunga, balki o'quvchilarning kognitiv ehtiyojlari, psixologik holati, texnologik tayyorgarligi va kommunikativ kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga ham xizmat qilishi kerak ^[5]. Shu nuqtayi nazardan, yangi instruksional texnologiya konsepsiyasida dars shakllari o'zgaruvchan, SI vositalari bilan uyg'unlashtirilgan va ko'pkanalli ta'lim muhitini yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim ^[4]. Quyida keltirilgan shakllar aynan o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq kompetensiyalarini interaktiv, reflektiv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirishga qaratilgan.

Individual ish shakli - o'quvchining mustaqil ishlash, refleksiya qilish va til kompetensiyalarini chuqurlashtirish imkonini beruvchi asosiy dars shakli sifatida saqlanib qoladi. Unda o'quvchi ChatGPT yordamida yozma topshiriqni mustaqil bajaradi yoki og'zaki chiqishlar rejasini ishlab chiqadi. Grammarly esa grammatik, stilistik, punktuatsion va uslubiy xatolarni aniqlab, avtomatik izoh beradi. O'qituvchi bu jarayonda kuzatuvchi, maslahat beruvchi va yo'naltiruvchi rolida ishtirok etadi. Baholash formativ, ya'ni rivojlantiruvchi fikr-mulohazaga asoslanadi. Bu yondashuv metakognitiv anglash, reflektiv fikrlash va ijodiy nutqni faollashtiradi.

Juftliklarda ishlash (pair work) kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda GPT turli ssenariylar asosida rollarni ijro etadi (masalan, "sotuvchi - mijoz", "o'qituvchi - talaba") va o'quvchilarga muloqot uchun muqobil savollar, javob variantlari va situatsiyalar taklif etadi. O'quvchilar bu asosda dialog tuzadi, rolga kiradi va real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish malakasini oshiradi. Yakuniy natijalar Grammarly va o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi. Bu metod nutqiy tezkorlik, ijtimoiy nutq uslublari va kontekstual muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Guruhda ishlash (group work) tahliliy fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. "Debate with GPT" modeli asosida har bir guruhga muayyan mavzu beriladi, GPT esa belgilangan pozitsiyani himoya qiladi. O'quvchilar esa unga qarshi dalillar keltirib, fikrni asoslaydilar ^[9]. Guruhdagi har bir a'zo aniq vazifaga ega bo'ladi: dalil topish, izoh berish, yakuniy xulosani tuzish va hokazo. Yakuniy baholash GPT va o'qituvchi tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.



Differensial darslar o'quvchilarning individual ehtiyojlari va til darajalarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi [8]. ChatGPT va Grammarly orqali har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi va CEFR darajalariga mos ravishda (A2, B1, B2) differensiallashtirilgan topshiriqlar taqdim etiladi. Bu adaptiv yondashuv instruksional texnologiyaning shaxsga yo'naltirilganlik va moslashuvchanlik tamoyillarini ifodalaydi.

Frontal (umumiy sinf) shaklida o'qituvchi tomonidan mavzu tushuntiriladi, asosiy model va struktura taqdim etiladi. So'ngra muammoli vaziyat yoki ochiq savol qo'yiladi. O'quvchilar SI vositalari yordamida mavzuga oid qo'shimcha resurslarni izlab topadilar yoki bevosita ChatGPT orqali tushuntirish so'rashadi. Keyingi bosqichda GPT bilan suhbatli mashq, test-mashqlar yoki interaktiv savol-javoblar bajariladi. Bu dars shakli real vaqtli monitoring, reflektiv tahlil va dialogik muloqotni kuchaytiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida har bir dars, ayniqsa ingliz tilini o'qitish darslari, shunchaki bilim berish maydoni emas, balki o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan faol amaliyot makoniga aylanishi lozim. Chunki til o'rganish - bu, avvalo, nazariy ma'lumotlarni yod olish emas, balki tilni muloqot vositasi sifatida ongli, kontekstual va reflektiv qo'llashdir. Shuning uchun ham, ishlab chiqilgan yangi instruktiv texnologiyamizda dars metodlari an'anaviy "tushuntirish-eslab qolish" modeliga emas, balki "tahlil-qayta qurish-mustahkamlash" tamoyillariga asoslanadi. Bu esa o'quvchining bilishga emas, fikrlashga, yodlashga emas, tahlilga, xotiraga emas, ijodga yo'naltirilgan faoliyatini ta'minlaydi.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida instruksional texnologiya va sun'iy intellekt vositalarining integratsiyasi nafaqat metodik yondashuvlar xilma-xilligini keltirib chiqarmoqda, balki ta'lim jarayonining barcha komponentlariga ta'sir ko'rsatayotgan kompleks tizimni shakllantirmoqda. Zamonaviy metodologik manbalarda bu integratsiya quyidagi asosiy innovatsion komponentlar orqali izohlanadi: real vaqtli interaktiv chatbotlar, moslashtirilgan LMS tizimlari, multi-agentlik RECIPE yozuv modeli, affektiv SI hamda nutq simulyatorlari va gamifikatsiyalangan reflektiv modullar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, instruksional texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) vositalarining integratsiyalashuvi ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. SI texnologiyalari orqali individual yondashuv, adaptiv baholash va real vaqtli fikr-mulohaza mexanizmlarining qo'llanilishi o'quvchilarning til ko'nikmalari – xususan, og'zaki va yozma nutq malakalarining sifat jihatidan rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Integratsiyalashgan yondashuv - dars jarayonida SI vositalaridan foydalanish o'qituvchi nazorati va metodik yo'naltiruv bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bu o'quv jarayonida insoniy pedagogik tajriba va texnologik imkoniyatlar sinergiyasini ta'minlaydi.
2. Metodik diversifikatsiya – ta'lim samaradorligini oshirish uchun an'anaviy, interaktiv va reflektiv yondashuvlarni o'z ichiga olgan turli metodik modellarni parallel qo'llash zarur.
3. Reflektiv o'rganish topshiriqlari – o'quvchilarda metakognitiv anglash va mustaqil fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni keng ko'lamda tatbiq etish tavsiya etiladi.
4. Baholash tizimlarini moslashtirish – adaptiv testlash, avtomatlashtirilgan xato tahlili va emotsional-motivatsion monitoring elementlarini o'z ichiga olgan kompleks baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tavsiyalar instruksional texnologiya va SI vositalarining didaktik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tili ta'limining sifat ko'rsatkichlarini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burkhanov, B. & Khamidova, Z. (2024). "Integratsiyalashgan sun'iy intellekt asosida til o'rgatish modellari." Xorijiy tillar, №2, 33–41.
2. Zokirjonova, N. (2025). Chet tilini sun'iy intellekt vositalari orqali o'rgatishning metodik asoslari. PhD diss., Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.
3. Han, Y., Zhang, T., & Lu, H. (2023). "Artificial Intelligence-Powered Tools in Language Classrooms: Affordances and Constraints." Journal of Computer-Assisted Language Learning, 36(1), 78–94. <https://doi.org/10.1080/09588221.2023.2181437>
4. Jiang, Y. (2022). "Adapting Instruction to Learner's Digital Profiles: AI-Supported Language Learning." Computer-Assisted Language Learning Journal, 35(4), 402–419. <https://doi.org/10.1080/09588221.2022.2043123>



5. Robert M. Gagné. The Conditions of Learning and Theory of Instruction. 4th ed. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1985.
6. Charles M. Reigeluth. Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory, Vol. II. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999.
7. David Merrill. "First Principles of Instruction: Identifying and Designing Effective, Efficient, and Engaging Instruction." Educational Technology Research and Development, 50(3), 43–59. <https://doi.org/10.1007/s11423-003-0002-9>
8. Burkhanov, Abdurahmon, va Mohira Khamidova. Chatbot yordamida interaktiv grammatika mashg'ulotlari metodikasi. Toshkent: Innovatsion ta'lim, 2024, 18–25-bet.
9. Zokirjonova, Nilufar. LMS asosida chet tillarni adaptiv o'qitish metodikasi: nazariya va tajriba. Samarqand: Til va madaniyat nashriyoti, 2025, 41–45-bet.
10. Jiang, Qi. "Affective Computing in Foreign Language Education: Monitoring Learners' Motivation and Stress via AI." International Journal of Educational AI Systems, 17(3), 221–238. <https://ijedais.org/affcomp-july2022>
11. Ytvynova, Svitlana. "Gamification and Reflection in EFL Classrooms: A Comparative Study Using AI Visualization Tools." Scandinavian Journal of Language Didactics, 9(1), 45–60. <https://sjld.nordicjournals.org/articles/view/2323>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.